

"SIMFONIYALAR VA KVARTETLAR OTASI" **GAYDN - 290 YOSHDA**

BARNAYEVA Nargiza Baxramovna,
XUSAINOVA Nargiza Ashurovna
(Buxoro viloyati Buxoro shahar ixtisoslashtirilgan san'at
maktabi musiqiy-nazariy
fanlar o'qituvchilari)

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk Avstriyalik kompozitor, Vena klassik maktabining yirik vakili, "Simfoniylar va kvartetlar otasi" Yozef Gaydn hayoti va ijodi, uning jahon musiqa madaniyatiga qo'shgan hissasi, 18-asrning 2-yarmida cholg'u musiqasining rivojlanishiga asos solganligi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Simfoniya, kvartet, kamerli ansambl, Georg Royter, avliyo Stefan sobori, kompozitsiya, zingshpil, orkestr kapellasi, kapelmeyster, messa, "Ertalab", "Tushlik", "Kechqurun", "Xayrlashuv" simfoniyasi, Vena, London, oratoriya, divertiment.

Musiqa olamida shunday daholar uchraydiki, bu buyuk nomlar san'atsevar xalqqa o'zi haqida ko'p narsalarni bilishga da'vat etadi. Shunday nomlardan biri – Yozef Gaydn.

Mashhur Avstriyalik kompozitorning asarlari butun dunyoda hozirgi kunda ham qimmatini yo'qotmay yashab kelmoqda.

Gaydnni ko'pincha "simfoniylar va kvartetlar otasi" deb ataydilar. Darhaqiqat, bu janrlar boshqa buyuk kompozitorlarning ijodida bir oz avvalroq paydo bo'lgan bo'lsa-da, Gaydn simfoniya janriga yangicha hayot bag'ishladi, uning mazmunini chuqurlashtirdi, musiqasini milliy xalq kuylari va ritmlari bilan boyitdi. Shuningdek, Gaydn kamerli cholg'u musiqasining klassik uslubi yaratuvchisi bo'ldi.

Yozef Gaydn 1732-yil 31-martda Quyi Avstriyaning Rorau qishlog'ida xizmatchilar oilasida dunyoga keldi. Otasi Matias Gaydn kareta yasovchisi, onasi esa oshpaz bo'lib ishlardi. Yozefning ota-onasi musiqa shinavandalari edilar. Otasi arfada kuylar chalib, qo'shiq aytardi.

Ularning uylarida tez-tez musiqiy kechalar tashkil qilinar edi. Gaydn qishloq muhitida bolaligini o'tkazib, xalq qo'shiq va raqslariga mehri uyg'onadi va bu bolalik taassurotlari kelgusida bo'lajak kompozitor bo'lishiga turtki bo'ladi. Uning barcha asarlarida Avstriya xalq ijodiga bo'lgan yaqin aloqa sezilib turadi.

Kuchli musiqiy iste'dod va chiroyli ovozga ega bo'lgan kichkina Yozef, 8 yoshida Dunay qirg'ogidagi kichik shaharcha – Gaynburg shahridagi cherkov xoriga qabul qilinadi. Bu yerda Gaydn qo'shiq aytishni, nota yozuvini, skripka va klavesinda chalishni o'rganadi. Bu mashg'ulotlar 3 yil davom etadi.

Tez orada Yozefning chiroyli soprano ovozi va musiqiy iste'dodi, taniqli Vena kompozitori va kapelmeysteri Georg Royterni o'ziga tortadi. Royter Yozefni Venadagi avliyo Stefan soboridagi o'zi boshqaradigan xorda ishtirok etishi uchun olib boradi.

Cherkov xori hayoti juda murakkab kechishiga qaramay, Gaydn Royter rahbarligida kompozitsiya bilan shug'ullanar edi, opera teatrlariga qatnar edi. Boy zodagonlarning uylarida kechki oqshomlarda, bazmlarda xizmat qilib, simfonik musiqalarni tinglar edi. Vena maydonlari, xiyobonlari va bog'larida doimiy yangrab turgan xalq maishiy musiqasi Gaydn hayotiga muhim ta'sir ko'rsatdi.

Poytaxtga Avstriyaning turli burchagidan jahongashta musiqachilar yog'ilib, nemis, venger, slavyan xalq qo'shiqlarini ijro etadilar. Hatto, Gaydn ham bu musiqachilarning hamrohiga aylanadi.

Avliyo Stefan soboridagi xorda 9 yil ishlab, o'tish davrida ovozi buzilganidan so'ng, yosh ijodkor ishsiz qoladi. U darslar berar, ansambllarda ishtirok etar, qo'shiqchilarga jo'navozlik qilib kun kechirardi.

19 yoshida ilk nemis komedik zingshpili "Yangi cho'loq shayton" Venada va Avstriyaning turli shaharlarida sahnaga qo'yilib, olqishlarga sazovor bo'ladi.

1759-yildan 1761-yilgacha Gaydn chex grafi Motrsin huzurida 12 ta musiqachidan iborat bo'lgan orkestr kapellasining rahbari bo'lib ishlaydi. Bu kapella uchun Gaydn xush kayfiyat xarakterdagi asarlar yaratadi. Uning ilk simfoniylari ham shu davrga tegishlidir.

1761-yilda Gaydn hayotida yangi davr boshlandi. U 30 yil davomida venger knyazi Estergazi saroyida kapelmeyster vazifasida ishlaydi. Kapelmeysterga ma'lum vazifa yuklangan edi. U simfoniya, kvartet yoki messa yozib, musiqachilar bilan yangi asar ustida ishlab, belgilangan sana yoki vaqtda ijro etishi lozim edi.

Gaydn Estergazi xonadonida xizmat qilib, ko'plab asarlar muallifiga aylanadi: simfoniylar, kvartetlar, triolar, cholg'u kontsertlari, operalar, divertismentlar va h.

Ayniqsa, uning "Ertalab", "Tushlik" va "Kechqurun" deb nomlanuvchi 3 ta simfoniya alohida ta'rifga loyiq.

Gaydnning shu davrdagi ijodi juda sermahsul bo'lsa ham, ayrim hollarda zerikarli hayot kechirardi. U xo'jayinining buyrug'iga bo'ysunishga majbur edi. Undagi bu kayfiyat 1772-yilda yaratilgan "Xayrlashuv" simfoniyaasida aks etdi.

Bu simfoniya an'anaviy 4 qismli shakldan cheklangan holda yozilib, 5-qismda musiqachilar shamchiroqlarini o'chirib, birma-bir cholg'u asboblari bilan chiqib ketadilar. Simfoniyaning oxirida og'ir, mungli kuy ijro etadigan 2 nafar skripkachi qoladi.

80-yillarda Gaydn 6 ta "Parij" simfoniylarini yozadi va frantsuz poytaxt shahrida Gossek rahbarligida ijro etiladi.

1791-yilda Gaydn Estergazi xonadonidan ozod bo'lib, Venada yashaydi. U 2 marta Londonga sayohat qilib, o'zining 12 ta London simfoniylarini yaratadi va o'zi bu simfoniylariga dirijyorlik qiladi.

Londonda Gaydn Gendel oratoriyalari ijrosini tomosha qiladi. Bundan katta taassurot olib, o'zining yirik "Dunyoning yaratilishi" va "Yil fasllari" oratoriyalarini yozadi. Har ikkala oratoriya tantanali yutuqlarga erishadi.

1802-yilda "Dunyoning yaratilishi" oratoriyasi Peterburgda yangrab, Rossiya tomonidan asar muallifiga medal mukofoti yuboriladi.

Umrining oxirgi yillarida Gaydn musiqa yaratmay qo'yadi. 1809-yili 31-mayda Venada vafot etadi.

Gaydnning ijodiy merosi cheksizdir. U 100 dan ortiq simfoniya, 83 ta kvartet, orkestr va turli xil cholg'ular uchun kontsertlar, klavir solosi uchun – 52 ta sonatalar, rondolar, variatsiyalar; divertismentlar, 24 ta operalar, messalar, oratoriyalar, ovoz va xor uchun qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

Ayniqsa, kompozitorning cholg'u musiqasi – kamerli va simfonik musiqaga amalga oshirgan yangi ishlari juda bebahodir.

Mashhur rus kompozitori P.I.Chaykovskiy "Gaydn – simfoniya kompozitorligi zanjiri uchun zarur bo'lgan mustahkam poydevordir; Gaydn bo'lmaganda, - Motsart ham, Betxoven ham bo'lmas edi" deb yozgan edi.

Gaydnning eng sara asarlari hozir ham badiiy huzur baxsh etib, o'zining xalqchilligi, hayotbaxshligi, o'tkir fikrga ega ekanligi bilan millionlab tinglovchilarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. T.V.Popova. "Zarubejnaya muzika XVIII i nachala XIX veka". Moskva 1976.
2. B.V. Levik. "Muzikalnaya literatura zarubejnix stran". II. Moskva 1979.